NAMANGAN VILOYATI UCHQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 25-fevral 122-6-87-Q/25 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Uchqo‘rg‘on tumanidagi Tinchlik, Qo‘g‘ay, Shodlik, va Turkiston mahalla fuqarolari yig‘ini xududidan o‘tuvchi davlat va mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarining ma’lum bir qismlariga tirbandlikni va xarakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish, Uchqo‘rg‘on tumani hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi 444-6-87-Q/24-sonli qarorida ko‘rsatib o‘tilgan Chek, Ulug‘bek, Do‘stlik va Ko‘prikboshi mahalla fuqarolari yig‘ini xududida 3.27 yo‘l belgilariga qo‘shimcha ravishda 5.41 “Foto va video qayd etish” 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgilari o‘rnatish, o‘rnatilgan joylarga qoida buzarliklarni qayd etish foto va video maxsus uskunalari bilan jihozlash to‘g‘risida.

Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi Uchqo‘rg‘on tuman bo‘limining 2024-yil 16-oktabrdagi 1610/3-sonli taqdimnomasi hamda Uchqo‘rg‘on tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 16-oktabrdagi 01/150-sonli “Davlat ahamiyatidagi 4R 116 “Namangan sh-Uychi sh-Uchqo‘rg‘on sh-Xaqulobod sh” avtomobil yo‘lining 49-50 km oralig‘i, 4R 116B “Uchqo‘rg‘on sh-Yangiyer-Bo‘ston” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, mahalliy ahamiyatidagi 4K 431 “Qozoqovul-Qo‘g‘ay-Azimto‘pi” avtomobil yo‘lining 10-11 km oralig‘i, 4K 467 Uchqo‘rg‘on-Burilma-Norinkapa avtomobil yo‘lining 6-7 km oralig‘ida 4K 428 Qo‘g‘ay-Yangiobod avtomobil yo‘lining 20-kilometirida amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 5.41 “Foto va video qayd etish” 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgisini o‘rnatish haqida”gi xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN

1. Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi Uchqo‘rg‘on tuman bo‘limining 2024-yil 16-oktabrdagi 1610/3-sonli taqdimnomasi hamda Uchqo‘rg‘on tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 16-oktabrdagi 01/150-sonli “Davlat ahamiyatidagi

4R 116 “Namangan sh-Uychi sh-Uchqo‘rg‘on sh-Xaqulobod sh” avtomobil yo‘lining 49-50 km oralig‘i, 4R 116B “Uchqo‘rg‘on sh-Yangiyer-Bo‘ston” avtomobil yo‘lining 0-1 km oralig‘i, mahalliy ahamiyatidagi 4K 431 “Qozoqovul-Qo‘g‘ay-Azimto‘pi” avtomobil yo‘lining 10- 11 km oralig‘i, 4K 467 Uchqo‘rg‘on-Burilma-Norinkapa avtomobil yo‘lining 6-7 km oralig‘ida 4K 428 Qo‘g‘ay-Yangiobod avtomobil yo‘lining 20-kilometirida amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 5.41 “Foto va video qayd etish” 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgisini o‘rnatish haqida”gi xatlari asos uchun qabul qilinsin.

2. Uchqo‘rg‘on tumanidagi Tinchlik, Qo‘g‘ay, Shodlik, va Turkiston mahalla fuqarolari yig‘ini xududidan o‘tuvchi davlat va mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarining ma’lum bir qismlariga tirbandlikni va xarakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish, Uchqo‘rg‘on tumani hokimining 2024-yil 15-oktabrdagi 444-6-87-Q/24-sonli qarorida ko‘rsatib o‘tilgan Chek, Ulug‘bek, Do‘stlik va Ko‘prikboshi mahalla fuqarolari yig‘ini xududida 3.27 yo‘l belgilariga qo‘shimcha ravishda 5.41 “Foto va video qayd etish” 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgilari o‘rnatish, o‘rnatilgan joylarga qoida buzarliklarni qayd etish foto va video maxsus uskunalarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

Tuman ichki ishlar bo‘limi (O.Jabborov)ga:

- Uchqo‘rg‘on tuman xududida xarakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish yuzasidan transport vositalari harakatlanish davrida xarakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (X.Ataxanov)ga:

- amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan”, 5.41 “Foto va video qayd etish” va 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4.Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Madraximov), va “Yorqin hayot” gazetasi (S.Najmiddinova)ga amaldagi yo‘l xarakati qoidalarining 3-bandi “Taqiqlovchi yo‘l belgilari”ning 3.27 “To‘xtash taqiqlangan”, 5.41 “Foto va video qayd etish” va 7.21 “Evakuvator ishlamoqda” yo‘l belgilarini o‘rnatilganligito‘g‘risida gazeta ro‘znomalari va tuman hokimligi rasmiy veb sayti orqali kengyoritish tavsiya etilsin.

5.Mazkr qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari S.Xojayev hamda IIB boshlig‘i O.Jabborovlar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Mirxanov**